

REJISSORNING OPERATOR BILAN REJISSORLIK SSENARIYSI USTIDA ISHLASHI.

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 2-bosqich talabasi

sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada sahna nutqi, plasrika, kateatr va aktyorning eng muhim ish quroli bo'lmish so'z, hamda rejissorning operator bilan senariy ustida ishlash prinsplari bo'yicha, sahna haqida juda ham qiziqarli ma'lumotlar keltrilgan.*

Kalit so'zlar: *san'at, rejissura, aktyor, istedod, sistema, nutq, sahna, senariy, operator.*

Rejissor ssenariy mu allifi tomonidan yozilgan adabiy yoki kinossenariy asosida rejissorlik ssenariysini yozadi. Rejissorlik ssenariysi tasvirga olish maydonchasida ham rejissorga, ham operatorga qo'llanma, har bir harakatning, planning va kadrning qanday suratga olinishi kerakligini ko'rsatib turuvchi yo'riqnoma vazifasini o'taydi. Chunki tasvirga olish maydonchasida rejissor ham, operator ham oldin xayollaridagi tasvirni maydonchada yuzaga keladigan mayda muammolar tufayli unutishlari yoki chalg'ib ketishlari mumkin. Rejissorlik ssenariysi esa oldindan rejalashtirilgan reja asosida ish olib borishga xizmat qiladi. Shuning uchun rejissorlik ssenariysi ustida ishlanar ekan, e'taborli bo'lish talab etiladi. Bo'lajak filmning har bir kadri, uning qanday planda olinishi,

qanday texnikadan foydalanilishi, umuman har bir detal rejissorlik ssenariysida aks etgan bo'lishi kerak. Yaxshi ishlangan rejissorlik ssenariysi tasvirga olish ishlarining bir maromida borishini ta'minlab beradi. Rejissor kinossenariy asosida rejissorlik ssenariysi yozar ekan, operator bilan hamkorlikda buni amalga oshiradi. Bu jarayonda rejissor operatorga asarning maqsadini va ma'lum bir kadr orqali nima emoqchi ekanligini yetkazishi kerak. Shunda operator ham har bir kadrda uning mohiyatidan kelib chiqib rakrus tanlaydi. Undan tashqari operator har bir kadrning mazmunidan kelib chiqib chiroq va yoritish uskunalarini yozib chiqadi. Keyinchalik bu operatorga suratga olish jarayonida tezkorlik bilan ishlashga imkoniyat yaratib beradi. Ssenariy muallifi Ismatulla Yo'ldoshevning "Qabohatga qo'yilgan tuzoq" nomli ssenariysi asosida Bahodir Yo'ldoshevning yozilgan rejissorlik ssenariysidan bir parcha e'tiboringizga havola qilinadi. Film kadrlardan iborat. Kadr bu bir nuqtadan yoki harakatlanayotgan kamera yordamida tushiriladigan tasvirning plyonkadagi bo'lagi. Kinematografda sahna har xil yiriklikdagi kadrlardan iborat. Kadrlar bir nuqtadan yoki harakatlanayotgan kamera yordamida tushirilishi mumkin. Rejissor kadr qurayotganida uing filmdagi o'rnini, shu ulkan silsilada qanday ma'no kasb etishini bilishi kerak. Kadr – filmning eng kichik bo'lagi bo'lib, rejissor ularning ustida birma-bir ishlashi kerak. Ssenariylarda asosan uzoq, umumiy, o'rta, yirik va detal

planlari ishlatiladi. Rejissor tasvirga tushirish jarayonida quyidgi holatlarga e'tibor berishi kerak: 1) Kadr mazmuni, yirikligi va chiroqning qandayligi. (Operator bilan birga) 2) Kadr kompozitsiyasi. 3) Ikkinchi (orqa) planni ham aynan tasvirga tushirilayotgan sahna bilan bog'liq bo'lishini, undagi harakatlar ham mazmun kasb etishini e'tiborga olish kerakligi. 4) Misol uchun umumiy planda tasvirga tushirilayotgan ko'rinishda qahramonning ust kiyimi pushti, atrofidagi buyumlarning rangi esa keskin q rangda deylik. Bu holatda qahramonni yirik planda tasvirga tushirmoqchi bo'lsak, uning kiyimi va atrofidagi buyumlarning rangi kadrda paydo bo'ladi va tomoshabinlarda noxush reaksiya uyg'otadi. Shunday ekan, kadr yiriklashtirilganda qahramon kiyimiga tushirilgan chiroqni kamaytirish yoki to'sish kerak bo'ladi. Demak, rejissor rang bilan bog'liq bo'lgan bu holatni ham unutmasligi kerak.

5) Aytaylik, tasvirga tushirilayotgan sahnaning boshi uyni ichida, so'ng ko'chada keyin esa yana uyda bo'lsin. Unda qahramonlar bir-birlari bilan tinimsiz suhbatlashishsin. Shunday sahnani tasvirga tushirmoqchi bo'lganimizda avval sahnaning o'rta qismi bo'lgan ko'chadagi ko'rinishdan boshladik deylik. Bu holatda rejissor sahna ko'rinishlaridagi aktyorlar ijrosining xarakterini, tempini, ritmini aniq bilishi kerak. Sababi, montaj qilingan bu ko'rinishlardagi aktyorlar ijrosi, harakatlarining tempi, ritmi tabiiy rivojlanishi kerak. Temp o'z o'rnida obyektivlarni o'zgartirish yordamida tezlashtiriladi yoki sekinlashtiriladi. Kadrda to'g'ridan yugurib kelayotgan odamdan ko'ra, kamera yon tarafdin kuzatayotgan yugurib ketayotgan odam harakatining tempi yuqoriroqqa o'xshab tuyuladi. Bu murakkab holat, albatta. Temp va ritmni qolgan holatlarda aktyorlar ijrosi ham xal qiladi. 6) Yana eng oddiy aktyorlar kiyimi va rekvizitlarni avvalgi kadr va keyingi kadrlarda bir xil bo'lishidan tortib, film yaratayotgan rejissor, muhitga ham e'tibor berishi kerak. Sababi, qahramon uyining jihozlari, kiyadigan kiyimlari uning xarakterini ko'rsatib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziyo.uz electron kutubxonasi
2. Xrestomatiyapo istori izapadno yevropeyskogo teatra. T. 1-2 /sost S. Mokulskiy / M., 1953, 1955 gg.